


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**

## **70230105 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik *magistratura mutaxassisligining***

MALAKA TALABI

**Toshkent-2024**

Toshkent-2024



## **ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

1. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
2. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti.

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil “1” 08 dagi 277-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

## **JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talabi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standardi. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

**MUNDARIJA**

T/r		bet
<b>1.</b>	<b>Umumiy tavsifi.....</b>	<b>4</b>
1.1.	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi .....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarning tavsifi .....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatlarning sohalari .....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarning obyektlari .....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarning turlari .....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari .....	5
<b>2.</b>	<b>Kasbiy kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar.....</b>	<b>7</b>
<b>3.</b>	<b>Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....</b>	<b>9</b>
<b>4.</b>	<b>Fanlar katalogining tuzilishi.....</b>	<b>9</b>
	<b>Bibliografik ma’lumotlar .....</b>	<b>11</b>
	<b>Kelishuv varag‘i .....</b>	<b>12</b>

## **1. Umumiy tavsifi**

70230105 – *Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik* bo‘yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish krédit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda magistratura dasturining me’yoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo‘llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo‘llanishi.**

Malaka talabi 70230105 - *Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik* magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

magistratura mutaxassisligining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan bakalavrular, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

## **1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.**

### **1.2.1. Kasbiy faoliyatlarning sohalari:**

Ijtimoiy-gumanitar sohadagi yo‘nalish bo‘lib, bitiruvchilarning kasbiy faoliyati mamlakat va xalqaro qo‘lyozma fondlari, muzey, arxiv va boshqa markaz, xazinalarda saqlanayotgan mumtoz adabiy meros namunalarini o‘rganish; o‘zbek matnshunosligi tarixinining davrlar kesimidagi shakllanish bosqichlarini aniqlash; mumtoz adabiy manbalarning asliyat asosidagi yig‘ma va tanqidiy matnlarini tayyorlash prinsiplarini ishlab chiqish; eski o‘zbek tili, arab va fors tillarining nazariy va amaliy asoslari, lug‘at boyligi, mazkur tillarda yaratilgan ilmiy va badiiy adabiyot, umumiyl tilshunoslikning nazariy masalalari, o‘zbek mumtoz adabiyoti, manbashunoslik masalalari, tarjima nazariyasi va amaliyoti asoslari, dars berish mahorati va nutq madaniyati masalalarini manbashunoslik va matnshunoslik negizida tadqiq va tahqiq etishdan iborat.

*Magistratura mutaxassisligi bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari va soha mutaxassislarining taklif va talablaridan kelib chiqqan holda magistrarlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.*

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari:**

oliy ta'lif, qayta tayyorlash va malaka oshirish, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lif muassasalarida mutaxassislikka oid fanlar hamda o'zbek, sharq va g'arb tillarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyat;

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida;

ma'naviy meros muhofazasi bilan bog'liq qo'mita va davlat idoralari;

gazeta va jurnallar tahririysi, radio va televideniye, nashriyotlar;

sohaga oid ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, kutubxonalar;

ma'naviy targ'ibot ishlari bo'yicha mutaxassis talab etiladigan hokimiyat va boshqa boshqaruv tizimlari;

turli qo'lyozma va kitoblar saqlanadigan fondlar;

manbashunos ekspert talab etiladigan davlat xavfsizligi va ichki ishlar vazirligi tizimi;

ixtisoslik sohasiga oid boshqa tashkilotlar.

70230105 – *Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik* magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrant bitiruvchilari fan sohasidagi magistratura mutaxassisligini tugatgandan so'ng O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, ma'naviy meros muhofazasi bilan bog'liq qo'mita va davlat idoralarda, sharq va g'arb tillaridan tarjimon talab etiladigan tashkilotlarda, gazeta va jurnallar tahririysi, nashriyotlar, kutubxonalarda, manbashunos ekspert talab etiladigan davlat xavfsizligi va ichki ishlar vazirligi tizimida, ma'naviy targ'ibot ishlari bo'yicha mutaxassis talab etiladigan hokimiyat va boshqa boshqaruv tizimlarida ishslash va sohaga oid masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari**

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ma'naviy va ma'rifiy;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *pedagogik (oliy ta'lif muassasalari)*
- *konsalting xizmati va shu kabilarni o'z ichiga oladi.*

### **1.2.4. Kasbiy vazifalar.**

70230105 - *Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik* magistratura mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistrant bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

mutaxassislikka mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini tahlil qilish;

sharq tillari yuzasidan birlamchi manbalarga suyangan holda, innovation va fundamental tadqiqotlar olib borish, sohaning nazariy va amaliy muammolarini bilish, davr uchun dolzarb, hali ishlanmagan muammolarni aniqlay olish;

filologiya sohasida ilmiy tekshirish institutlarida ilmiy xodim, tadqiqotchilizlanuvchi sifatida namunaviy tadqiq usullari va matnshunoslikning amaliy yo‘nalishida eksperimentlar o‘tkazish va natijalar bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar berish;

mamlakat miqyosida davlat va xususiy fondlardagi adabiy manbalarning to‘la katalogini bosqichma-bosqich tayyorlash bo‘yicha ilmiy loyihalar majmuini yaratish;

loyiha resursidagi qo‘lyozma va toshbosma kitoblarning, xususan, adabiy-tarixiy manbalarning elektron versiyasini, shuningdek, ularning monografik ilmiy tavsiflarini tayyorlash;

o‘tkazilayotgan tadqiqotlar bo‘yicha ilmiy sharhlar yaratish, referatlar va bibliografiyalar tuzish;

ilmiy seminarlar, ilmiy konferensiyalar ishida ma’ruzachi, muhokamalarda qatnashuvchi va referent sifatida ishtirok etish;

adabiy manbashunoslik va matnshunoslik yo‘nalishida mamlakat va xalqaro miqyosda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar davriy monitoringini o‘tkazish va muvofiqlashtirib borish;

respublika va xorijdagi yetakchi ilmiy muassasalar bilan ilmiy-amaliy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

ilmiy va sohaga oid jurnallarga maqola va taqrizlar tayyorlash;

internet tarmog‘ida yangi ilmiy, adabiy va lisoniy yangiliklar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

qo‘lyozma va toshbosma kitoblar fondida saqlanayotgan manbalar bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar metodikasini yaxlit tizimda umumlashtirib, adabiy-tarixiy merosga yondashuvning mumtoz an’ana va zamonaviy yutuqlar uyg‘unligiga asoslangan tamoyillarini ishlab chiqish;

hosil qilingan nazariy-tajribaviy natijalarni ilmiy muomalaga olib kirish;

ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida kasbiy faoliyat masalalarini yechish.

### **Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatida:**

ma’naviy-ma’rifiy ishlarni rejalashtira olish, uni tashkillashtirish metodikasini egallah, o‘quvchilar ongiga ma’naviy merosga muhabbat, sog‘lom e’tiqodga chanqoqlik, o‘zaro mehr-shafqat g‘oyasini singdirish;

o‘quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilish;

globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda yozma ma’naviy merosning o‘rni va ta’siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

mahallalarda ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha yakka tartibda suhbat o‘tkazish;

milliy urf-odat va marosimlarni o‘tkazishda umuminsoniy qadriyatlar, mehrmuruvvat, bag‘rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish.

### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

mumtoz merosni o‘rganish va ommalashtirishga oid turli tadbir, anjuman va ma’rifiy suhbatlarni tashkillashtirish va boshqarish;

davlat va xususiy tarmoq tizimidagi muzey, arxivlarda muzeishunos va arxivshunos sifatida manbashunoslik faoliyatini tashkil qilish va boshqarish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish va bevosita ishtirok etish;

jamoada ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda to‘g‘ri qaror qabul qilish;

bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash.

### **Pedagogik faoliyatida (Oliy ta’lim muassasalarida):**

oliy ta’lim tayyorgarlik yo‘nalishida nazarda tutilgan o‘quv fanlari hamda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib, nazariy hamda amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish;

o‘quv jarayonini tashkil etish va o‘tkazilishiga ko‘maklashish, tadqiqotlarda ishtirok etish, ma’lumotlarni to‘plash, umumlashtirish va tahlil etish;

o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha dars mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-metodik hujjatlarni shakllantirish, tuzish va ularni tatbiq etish;

mustaqil ta’lim va ijodiy qidiruv natijasida o‘qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va shakllar bo‘yicha o‘z-o‘zini muntazam takomillashtirib borish;

oliy ta’limda matnshunoslik, manbashunoslik, eski o‘zbek yozuvi, adabiyot tarixi kabi fanlardan amaliy, seminar va laboratoriya mashg‘ulotini o‘tash.

### **Konsalting xizmati faoliyatida:**

yo‘nalishiga mos mavzulardagi loyihalar, manbalar, adabiyotlar, elektron video va audio mahsulotlarni ekspertiza qilish;

sharq va g‘arb tillari bo‘yicha tarjima ishlarini tashkil etish va amalga oshirish;

ixtisoslikka mos sohalar bo‘yicha konsalting xizmatlarini ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

## **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.**

ilmiy tadqiqotni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ilmiy-nazariy bilimlarni o‘zlashtirishi hamda matnshunoslikning tadqiq usullarini qo‘llash orqali ilmiy ish yozish malakasini shakllantirish;

oliy ta’limda mutaxassislik fanlarini o‘qitish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni

olish bilan birga turli pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali dars berish ko'nikmasini hosil qilish;

mumtoz arab tili va fors tillarni yaxshi bilgani holda matnlardagi so'zlarning mohiyatini tushunish va tahlil qila olish;

axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

yurtimizdag'i va xorijiy mamlakatlardagi qo'lyozma fondlaridan foydalanish va undagi matnlarni ilmiy tadqiqotida qo'llay olish malakasini shakllantirish;

magistratura mutaxassisligi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallah uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va o'quvlarni shakllantirishi; ta'lif yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

matnshunoslik va adabiy manbashunoslikning nazariy asoslarini o'rgatish, manbalarni qo'lyozma va toshbosma matnlarning farqli jihatlarini aniqlash, qolyozmalarni o'qish va tadqiq qilish malakasini shakllantirish, atributsiya, ateteza, gloss, interpolyatsiya kabi matnshunoslikning tadqiq usullaridan foydalangan holda qo'lyozma matnlarni tadqiq va tavsif qilish, yurtimizda yashab o'tgan ijodkorlarning qo'lyozmalarini tadqiq qilish orqali yangi asarlarini topish, fanga ma'lum bo'lмаган ijodkorlarni kashf etish;

xattotlik san'ati, yozuv tarixi, xat turlari: nasx, ta'liq, riqo, rayxoniy, devoniy, kufiy kabilarning yozuv uslubi va metodikasini o'rgatish, ularni san'at darajasida yozish malakasini shakllantitirish;

O'rta Osiyoda islom madaniyati kirib kelgandan keyingi davrda yaratilgan adabiy manbalarni o'rganish, matn tavsifi, xat turi, germenevtik tahlil kabilardan foydalangan holda matn tarixini tiklash, to'g'ri o'qish malakasini shakllantirish hamda asarning o'zbek adabiyotidagi o'rnnini baholay olish;

zamonaviy matnshunoslikda nashr muammosi va yechimlari, mustaqillikkacha bo'lgan davrda nashr qilingan matnlardagi muammolar va ularning asliyat bilan mosligini tahlil qilish. Shu jumladan, Alisher Navoiy asarları qo'lyozmalari, ularning nusxalarini qiyoslash orqali nashriy nusxalardagi xatoliklarni aniqlash va ilmiy tanqidiy matn yaratish ko'nikmasini shakllantirish;

matn tushunchasi, mumtoz va zamonaviy matnlarda tahrir masalasi, matnlarni tahrir qila olish malakasi, muallif huquqi masalasi va muharrir yondashuvi masalasi,

mumtoz adabiyotda matnning til xususiyatlari, matnshunoslik rivojida islom madaniyatining ta'siri, islom tamadduni, ilm-fanga ta'siri, mumtoz poetika, adabiyotda so'zning o'rni kabilarni ilg'ash;

turkiy yozma yodgorliklarda qadimgi turkiy til qo'llanishi natijasida tushunarsiz bo'lgan qadimgi so'zlar lug'atini tuzish masalasi va lug'atchilik muammosi;

folklor matnlarini o'rganish, yozib olingen folklor materiallarini davrlashtirish, ularni tahlil qila olish, baxshilar ijodini o'rganish, folklor matnlarining nashr qilinishi va uning matnga muvofiqligi masalasi tahlil qilish;

ilmiy–tanqidiy matn tushunchasi, ilmiy tanqidiy matn tuzishning asoslari va zarurati, uning yig‘ma-qiyosiy, ilmiy ommaviy matndan ustun jihatlari, qo‘lyozma matnlarni tadqiq qilishda ilmiy-tanqidiy matnning ahamiyati masalalarini o‘rganish;

matn va uni talqin qilish orqali yagona va ishonchli matnni tiklash, matnni tahlil qilish va uni tadqiq qilish tamoyillarini to‘g‘ri tanlash ko‘nikmasini hosil qilish;

magistratura mutaxassisligi negizidagi muayyan ixtisoslik bo‘yicha kelgusida ta’limni davom ettirishga ongli munosabatda bo‘lishiga ko‘maklashishi kerak.

### **3. Amaliyotga qo‘yiladigan talablar.**

Ilmiy-pedagogik amaliyot-umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompitensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Magistratura mutaxassisligi bo‘yicha *ilmiy-pedagogik amaliyot* o‘tkaziladi:

### **4. Fanlar katalogining tuzilishi:**

T/r	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiylukdagi yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>Majburiy fanlar</b>					
1.01	ITM 1 04	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO‘M 3 04	Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi	120	4	3
<i>Jami:</i>		<b>240</b>	<b>8</b>		
<b>70230105 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik: o‘zbek tili bo‘yicha majburiy fanlar</b>					
1.03	MN 1-2 10	Matnshunoslik nazariyasi	300	10	1-2
1.04	AMIA 1-2-3 13	Adabiy manbalar bilan ishlash amaliyoti	390	13	1-2-3
1.05	XKS 2-3 09	Xattotlik va kitobat san’ati	270	9	2-3
<i>Jami:</i>		<b>960</b>	<b>32</b>		
<b>Tanlov fanlari</b>					
2.00		<b>600</b>	<b>20</b>	<b>1-2</b>	
2.00		<i>Tanlov fanlari</i>	<b>600</b>	<b>20</b>	<b>1-2</b>
<i>Jami:</i>		<b>1800</b>	<b>60</b>		
<b>Kvalifikatsiya:</b> filolog-matnshunos, pedagog-tadqiqotchi (o‘zbek tili bo‘yicha)					
<b>70230105 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik: sharq tillari bo‘yicha majburiy fanlar</b>					
1.03	MSNM12-308	Mutaxassislikning nazariy masalalari	120	4	1
1.04	SM	Sharq matnshunosligi	180	6	2-3
1.05	BMS1104	Badiiy matn stilistikasi	120	4	1
1.06	SMP1204	Sharq mumtoz poetikasi	120	4	2
1.07	AMFT11-310	Adabiy manbaning filologik tadqiqi	300	10	1-3
1.08	YoTKS1204	Yozuv tarixi va kitobat	120	4	2

		san'ati			
		<b>Jami:</b>	<b>960</b>	<b>32</b>	
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>600</b>	<b>20</b>	<b>1-3</b>
2.00		<i>Tanlov fanlari</i>	600	20	1-3
		<b>Jami:</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
<b>Kvalifikatsiya:</b>	filolog-manbashunos, pedagog-tadqiqotchi (sharq tillari bilan)				
<b>70230105 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik bo'yicha majburiy fanlar</b>					
1.03	MNM1105	Mutaxassislikning nazariy masalalari	150	5	1
1.04	SMNA1205	Sharq matnshunosligening nazariy asoslari	150	5	2
1.05	AMFI20014	Adabiy manbaning filologik tadqiqi	420	14	1,2,3
1.06	BMS1104	Badiiy matn stilistikasi	120	4	1
1.07	SHMP1204	Sharq mumtoz poetikasi	120	4	2
1.08	YTKS1304	Yozuv tarixi va kitobat san'ati	120	4	3
		<b>Jami:</b>	<b>1080</b>	<b>36</b>	<b>1-3</b>
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>480</b>	<b>16</b>	<b>2,3</b>
2.00		<i>Tanlov fanlari</i>	480	16	2,3
		<b>Jami:</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
<b>Kvalifikatsiya:</b>	Matnshunos, manbashunos				
<b>3.00</b>		<b>Ilmiy faoliyat</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	<b>1-4</b>
		<b>HAMMASI</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	<b>3600</b>

\*OTM o'quv jarayonlarini tashkil etish hususiyatidan kelib chiqib, semestrlar uchun belgilangan umumiy kredit miqdorini muvofiqlashtirilgan holda fanlar o'tiladigan semestrlarni o'zgartirish mumkin.

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, eski o'zbek tili, arab va fors tillarining fonetik tizimi, morfologiyasi, sintaksisi, og'zaki va yozma nutq; matnshunoslik tadqiqotlari monitoringi; nutq madaniyati; so'z boyligi; matn tarixi, monografik ilmiy tavslif, ilmiy-tanqidiy matn; yagona va ko'p nusxali matn, matn tahqiqi, matn talqini; ilmiy apparat; ilmiy ko'rsatkichlar tartibi; mumtoz matn tili; adabiy jarayon; milliy adabiyot, ijodkor individualligi; matnshunoslik maktablari; kitobat va xattotlik san'ati; matn aniqligi; adabiyot tarixi; o'zbek matnshunosligi tarixi; adabiy manbalar katalogi; tarixiy-adabiy asar; matnshunoslik, adabiy manbashunoslik, metodika.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari  
hamda kadrlar iste’molchilari**

**ISHLAB CHIQILGAN:**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti

Rektor

Sh.Sirojiddinov

2024-yil

m.o’.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Rektor

G.Rixsiyeva

2024-yil

m.o’.

**KELISHILGAN:**

O’zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor

M.Boltaboyev

2024-yil

m.o’.

O’zR FA Alisher Navoiy nomidagi  
Davlat adabiyot muzeyi

Direktor

J.Eshonqulov

2024-yil

m.o’.

O’zbekiston Respublikasi Fanlar  
akademiyasi Abu Rayhon Beruniy  
nomidagi Sharqshunoslik instituti

Direktor

B.Abduxalimov

2024-yil

m.o’.

O’zbekiston Respublikasi Fanlar  
akademiyasi O’zbek tili, adabiyoti va  
folklori instituti

Direktor

N.Mahmudov

2024-yil

m.o’.